| 1.AQSh | A | Soya, qandlavlagi, cho'chqachilik |
| 2.Braziliya | B | Sholichilik, choy, yeryong'oq |
| 3.Indoneziya | C | Yilqichilik, shakarqamish, qahva |
| | D | Kakao, baliqchilik, tabiiy kauchuk |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

9. Quyida keltirilgan ichki suv transporti yo'llari va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Ichki suv transporti yo'llari (daryolar) | Davlatlar | |
|---|------------------|--------------------------------------|
| 1.Dunay | A | Kongo Demokratik Respublikasi, Kongo |
| 2.Amazonka | B | Avstriya, Germaniya, Vengriya |
| 3.Nil | C | Braziliya |
| | D | Misr, Sudan |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

10. Quyida keltirilgan xalqaro iqtisodiy aloqalar turlari va ular rivojlangan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Iqtisodiy aloqalar turlari | Davlatlar | |
|--|------------------|-----------------------------------|
| 1.Xalqaro savdo | A | AQSh, Yaponiya |
| 2.Xalqaro turizm | B | Fransiya, Ispaniya, Italiya |
| 3.Ishlab chiqarishdagi xalqaro hamkorlik | C | Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, |
| | D | Xitoy, AQSh, Germaniya, |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

11-savollar bazasi

1. Berilgan xususiyatlar orasidan Xorazm viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Oltin, mis, rux, volfram konlari bor
2. Hududining katta qismi Amudaryoning deltasidan iborat
3. Sharqiy qismini Hisor tog‘lari o‘rab olgan
4. Aholi soni 300 ming kishidan ortiq beshta shahri mavjud
5. Orol dengizi uning xo‘jaligiga sezilarli ta‘sir etadi
6. Ingichka tolali paxta yetishtiriladi
7. Viloyatning g‘arbiy qismida Chortoq sanatoriyasi qurilgan
8. Amudaryoning chap sohilida joylashgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

2. Berilgan xususiyatlar orasidan Sirdaryo viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Qo‘rg‘oshin, rux, volfram konlari bor
2. Hududining katta qismi Tuyatortar kanalidan sug‘oriladi
3. Sharqiy qismidan meridional yo‘nalishda daryo oqib o‘tgan
4. Shirin shahrida mashhur IES joylashgan
5. Dengizko‘l ko‘li uning xo‘jaligiga sezilarli ta‘sir etadi
6. Ingichka tolali paxta yetishtiriladi
7. Mamlakatimiz aholisining 2,5 foizi shu hududda yashaydi
8. Sirdaryo daryosining o‘ng sohilida joylashgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

3. Berilgan xususiyatlar orasidan Farg‘ona iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Iqtisodiy rayon aholisining 58 foizi shaharlarda yashaydi
2. Mamlakatimizning eng janubida joylashgan
3. Hududida Ilono‘tdi darasi joylashgan
4. O‘zbekiston pillasining 45 foizini yetishtirib beradi
5. Eng muhim daryolari Taxnoz daryo va Oqsuv hisoblanadi
6. Aholisining 3/5 qismi qishloqda yashaydi
7. Mamlakatimizda yetishtiriladigan paxtaning 25 foizini beradi
8. G‘arb va janubdan tog‘lar bilan o‘ralgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

4. Berilgan xususiyatlar orasidan Qashqadaryo viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Viloyat aholisining 74 foizi shaharlarda yashaydi
2. Mamlakatimizning eng sharqida joylashgan
3. Eski Anhor kanali oqib o‘tadi
4. Tallimarjon shahrida IES joylashgan

5. Eng muhim daryolari Sangardaksoy va To‘sinsoy hisoblanadi
6. Aholisining 3/5 qismi qishloqlarda yashaydi
7. Mamlakatimizda yetishtiriladigan paxtaning 65 foizini beradi
8. Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi mavjud

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

5. Berilgan xususiyatlar orasidan Navoiy viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Yurtimizdagi eng kenja viloyat
2. Mamlakatimizning eng janubida joylashgan
3. Malikcho‘l atrofida mashhur oltin koni joylashgan
4. Elektr energiyaning asosiy qismi quyosh panellaridan olinadi
5. Viloyatning ma‘muriy markazida kon-metallurgiya kombinati joylashgan
6. O‘zbekiston aholisining 2,9 foizi shu viloyatda yashaydi
7. Muruntov koni negizida Uchquduq shahri barpo etildi
8. G‘arb va janubdan tog‘lar bilan o‘ralgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

6. Berilgan xususiyatlar orasidan Farg‘ona iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Aholi soni bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinda turadi
2. Sirdaryo iqtisodiy rayonning sharqiy qismidan oqib o‘tgan
3. Mazkur iqtisodiy rayon o‘z tarkibiga 2 ta viloyatni qamrab olgan
4. O‘zbekistonda yetishtirilayotgan paxtaning 1/4 qismini beradi
5. Mamlakatda yagona bo‘lgan “millioner” shahri mavjud
6. Yirik kulolchilik, pichoqchilik, shoyi ishlab chiqarish markazlari mavjud
7. Iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i chorvachilik hisoblanadi
8. Mamlakatimizdagi eng yirik cho‘llar shu rayonda joylashgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

7. Berilgan xususiyatlar orasidan Surxondaryo viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Aholi soniga ko‘ra respublikamizda peshqadam viloyat
2. Viloyat hududida Surxon-Sherobod vodiysi joylashgan
3. Malikcho‘l atrofida mashhur oltin koni joylashgan
4. Janubdan suv yo‘li orqali Afg‘oniston bilan chegaradosh
5. Zarafshon daryosidan kam miqdorda suv oladi
6. Viloyatning eng janubidagi shahar – Termiz shahri
7. Taxiatosh va Mo‘ynoq shaharlarida sement zavodi joylashgan
8. G‘arb va janubdan past tog‘lar bilan o‘ralgan

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

8. Berilgan xususiyatlar orasidan Zarafshon iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Iqtisodiy rayonning tog‘li tumanlarida go‘sht va tivit uchun angor echkilari boqiladi
2. Iqtisodiy rayon hududida Ohangaron vodiysi joylashgan
3. Qorovulbozorda neftni qayta ishlash zavodi mavjud
4. Chodak yaqinida mashhur oltin koni joylashgan
5. Asosan, Norin va Qoradaryodan suv oladi
6. Yillik yog‘in miqdori 100 – 300 mm atrofida
7. Maydonining kattaligiga ko‘ra yurtimizda 2-o‘rinda turadi
8. Aholi zichligi har kv. km ga 112 kishini tashkil etadi

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

9. Berilgan xususiyatlar orasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududning o‘zi alohida iqtisodiy rayon sifatida ajratiladi
2. “G‘ovukko‘l” kichik turizm zonasi tashkil etilgan
3. Maydonining kattaligiga ko‘ra yurtimizda 3-o‘rinda turadi
4. Sanoatining rivojlanishida Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temiryo‘lining qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan
5. Asosan, Orol dengizi va Qayroqqum suv omboridan suv oladi
6. Qizketgan va Paxtaarna kanallari sug‘orish tizimida muhim ahamiyatga ega
7. Aholi soniga ko‘ra yurtimizda 1-o‘rinda turadi
8. O‘rta Osiyodagi urug‘lik beda yetishtiradigan eng yirik mintaqa

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

10. Berilgan xususiyatlar orasidan Mirzacho‘l iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Mamlakatimizning g‘arbiy qismidagi cho‘l hududida joylashgan
2. Donli ekinlar yetishtiriladigan hududlarida parrandachilik rivojlangan
3. Janubiy va sharqiy qismidan Amudaryo oqib o‘tadi
4. Eng yirik shahrining maydoni 330 kv. km dan ortadi
5. Zarafshon iqtisodiy rayoni bilan chegaradosh
6. Yirik shahri Guliston – yirik shoyi ishlab chiqarish markazi hisoblanadi
7. Iqtisodiy rayon hududiga shimoldan Arktika sovuq havosi kirib keladi
8. Hududi 10 ta shaharni o‘z ichiga oluvchi aglomeratsiyaga ega iqtisodiy rayonga tutash emas

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

12-savollar bazasi

1. Afrika materigidagi daryolar va ularning mansabini o'zaro moslashtiring.

| Daryolar | Quyilish joyi (mansabi) | |
|-------------------------------|-------------------------|-------------------|
| 1.Nil 2.Limpopo 3.Niger | A | Mozambik bo'g'izi |
| | B | Chad ko'li |
| | C | Gvineya qo'ltig'i |
| | D | O'rta dengiz |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

2. Afrika materigidagi relyef shakllari va ular joylashgan tabiiy geografik o'lkalarni o'zaro moslashtiring.

| Relyef shakllari | Tabiiy geografik o'lkalar | |
|--|---------------------------|-----------------|
| 1.Kamerun vulqoni 2.Margarita tog'i 3.Kap tog'lari | A | Markaziy Afrika |
| | B | Shimoliy Afrika |
| | C | Janubiy Afrika |
| | D | Sharqiy Afrika |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

3. Yevrosiyo materigidagi geografik obyektlar va ular tegishli bo'lgan tabiiy geografik o'lkalarni o'zaro moslashtiring.

| Geografik obyektlar | Tabiiy geografik o'lkalar | |
|--|---------------------------|----------------------|
| 1.Rub el Xali cho'li 2.Pechora daryosi 3.Putorana tog'lari | A | Sharqiy Sibir |
| | B | Sharqiy Yevropa |
| | C | Janubiy Yevropa |
| | D | Janubi-g'arbiy Osiyo |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

4. Avstraliya materigidagi geografik obyektlar va ular tegishli bo'lgan tabiiy geografik o'lkalarni o'zaro moslashtiring.

| Geografik obyektlar | Tabiiy geografik o'lkalar | |
|---|---------------------------|---------------------|
| 1.Arnemlend yarimoroli 2.Avstraliya Alpi tog'lari 3.Nallarbor tekisligi | A | Shimoliy Avstraliya |
| | B | G'arbiy Avstraliya |
| | C | Shimoli-sharq |
| | D | Janubi-sharq |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

5. Avstraliyadagi geografik obyektlar va ular tegishli bo'lgan tabiiy geografik o'lkalarni o'zaro moslashtiring.

| Geografik obyektlar | Tabiiy geografik o'lkalar | |
|--|---------------------------|---------------------|
| 1.Bayron burni 2.Katta Qumli cho'l 3.Kimberli yarimoroli | A | Shimoliy Avstraliya |
| | B | Janubi-sharq |
| | C | Shimoli-sharq |
| | D | G'arbiy Avstraliya |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

6. Okeaniyadagi orollar va ularning hududidan qazib olinadigan foydali qazilmalarni o'zaro moslashtiring.

| Orollar | Foydali qazilmalar | |
|---|--------------------|-------------|
| 1.Fiji 2.Yangi Kaledoniya 3.Nauru | A | Nikel |
| | B | Neft va gaz |
| | C | Oltin |
| | D | Fosforit |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

7. Antarktidadagi geografik obyektlar va ular xos bo'lgan relyef shakllarini o'zaro moslashtiring.

| Geografik obyektlar | Relyef shakllari | |
|------------------------------------|------------------|----------|
| 1.Berd 2.Erebus 3.Sovetskoye | A | Vulqon |
| | B | Cho'kma |
| | C | Tekislik |
| | D | Plato |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

8. Janubiy Amerikaning iqlim mintaqalari va ularga xos bo'lgan iqlimiy ko'rsatkichlarni o'zaro moslashtiring.

| Iqlim mintaqalari | Iqlimiy ko'rsatkichlar | |
|---|-------------------------------|--|
| 1.Ekvatorial 2.Tropik 3.Subekvatorial | A | Yozda yog'in ko'p yog'adi (1000–2000 mm), o'rtacha oylik harorat +25°C |
| | B | Yanvarning o'rtacha harorati +25°C, iyulda esa +17...+19°C, ba'zi joylarda 250–500 mm yog'in tushadi |
| | C | Sharqida yog'in miqdori 1000–2000 mm, yanvarda havo harorati +25°C, iyulda esa +10...+15 °C |
| | D | Havo harorati yil davomida +24...+25°C atrofida, yog'in miqdori 3500 mm dan ko'p |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

9. Shimoliy Amerika tabiiy geografik o'lkalar va ularga tegishli geografik obyektlarni o'zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik o'lkalar | Geografik obyektlar | |
|--|----------------------------|---------------------------|
| 1.Kordilyera tog'lari 2.Arktika orollari 3.Sharq | A | Kanada-Arktika arxipelagi |
| | B | Shimoliy Meksika |
| | C | Yukatan yarimoroli |
| | D | Appalachi tog'lari |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

10. Yevrosiyodagi daryolar va ular tegishli bo'lgan okean havzalarini o'zaro moslashtiring.

| Daryolar | Okean havzalari | |
|---|------------------------|-----------------------------|
| 1.Dunay, Don, Reyn 2.Amur, Xuanxe, Yanszi 3.Dajla, Furot, Iravadi | A | Tinch okean havzasi |
| | B | Atlantika okeani havzasi |
| | C | Shimoliy Muz okeani havzasi |
| | D | Hind okeani havzasi |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

14-savollar bazasi

1. Xalqaro transmilliy korporatsiyalar va ular ro'yxatdan o'tgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Transmilliy korporatsiyalar | Davlatlar | |
|-----------------------------|-----------|-----------|
| 1.Volkswagen | A | AQSH |
| 2.Toyota Motor | B | Germaniya |
| 3.Amazon | C | Yaponiya |
| | D | Xitoy |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

2. Yevropaning yarimorol davlatlari va ularning poytaxtlarini o'zaro moslashtiring.

| Poytaxtlar | Davlatlar | |
|------------|-----------|-------------|
| 1.Afina | A | Norvegiya |
| 2.Oslo | B | Portugaliya |
| 3.Stokgolm | C | Gretsiya |
| | D | Shvetsiya |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

3. Dunyoning yirik tog' tizmalari va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Tog' tizmalari | Davlatlar | |
|----------------|-----------|------------|
| 1.And | A | Italiya |
| 2.Pomir | B | Gruziya |
| 3.Kavkaz | C | Tojikiston |
| | D | Ekvador |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

4. Quyida keltirilgan megalopolislar va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Megalopolislar | Davlatlar | |
|----------------|-----------|-----------------|
| 1.Reyn | A | Yaponiya |
| 2.Bosvash | B | Germaniya |
| 3.Ingliz | C | AQSh |
| | D | Buyuk Britaniya |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
|---|---|---|

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

5. OPEK tashkilotiga a'zo davlatlar va ularning poytaxtlarini o'zaro moslashtiring.

| OPEKga a'zo davlatlar | Poytaxtlar | |
|-----------------------|------------|-----------|
| 1.Kuvayt | A | Malabo |
| 2.Liviya | B | Bag'dod |
| 3.Iroq | C | Al Kuvayt |
| | D | Tripoli |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

6. Quyida keltirilgan ko'llar va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Ko'llar | Davlatlar | |
|------------|-----------|-----------------------|
| 1.Baykal | A | Rossiya Federatsiyasi |
| 2.Eyr Nord | B | Kanada |
| 3.Titikaka | C | Avstraliya |
| | D | Peru |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

7. Quyida berilgan cho'llar va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Cho'llar | Davlatlar | |
|-----------|-----------|--------------|
| 1.Atakama | A | Turkmaniston |
| 2.Gobi | B | Xitoy |
| 3.Qoraqum | C | Namib |
| | D | Chili |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

8. Quyida berilgan yarimorollar va ular tegishli hisoblangan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Yarimorollar | Davlatlar | |
|---------------|-----------|-----------------------|
| 1.Kaliforniya | A | Rossiya Federatsiyasi |
| 2.Apennin | B | Meksika |
| 3.Somali | C | Somali |
| | D | Italiya |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

9. Afrika qit'asida joylashgan shaharlar va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Shaharlar | Davlatlar | |
|------------------|------------------|-----------------------------|
| 1.Lagos | A | Janubiy Afrika Respublikasi |
| 2.Yoxannesburg | B | Misr |
| 3.Iskandariya | C | Keniya |
| | D | Nigeriya |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

10. Osiyo qit'asida joylashgan shaharlar va ular joylashgan davlatlarni o'zaro moslashtiring.

| Shaharlar | Davlatlar | |
|------------------|------------------|---------------------|
| 1.Inchxon | A | Qozog'iston |
| 2.Madina | B | Xitoy |
| 3.Shanxay | C | Koreya Respublikasi |
| | D | Saudiya Arabistoni |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

15-savollar bazas

1. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududida joylashgan tog' tizmalarini o'zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Tog' tizmalari | |
|---|----------------|------------------------------------|
| 1.Chirchiq-Ohangaron 2.Mirzacho'l 3.Qashqadaryo | A | Oqtog', Qoratog', Nurota |
| | B | Turkiston, Morguzar, Baliqlitog' |
| | C | Piskom, Qurama, Chimyon |
| | D | Chaqchar, Kosontog', Olovuddintog' |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

2. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududida joylashgan relyef shakllarini o'zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Relyef shakllari | |
|--|------------------|-----------------------|
| 1.Usyurt 2.Quyi Zarafshon 3.Qizilqum | A | Qorako'l platosi |
| | B | Bo'kantov tog'lari |
| | C | Turon pasttekisligi |
| | D | Kassarma ko'tarilmasi |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

3. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududida joylashgan relyef shakllarini o'zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Relyef shakllari | |
|--|------------------|---------------------|
| 1.Farg'ona 2.Surxondaryo 3.Ustyurt | A | Qorabovur qirlari |
| | B | Bobotog' tizmasi |
| | C | Pistalitog' tizmasi |
| | D | Oloy tizmasi |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

4. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ular tabiatiga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Okrug tabiatining xususiyatlari | |
|---|---------------------------------|--|
| 1.Quyi Zarafshon 2.Surxondaryo 3.Farg‘ona | A | Markaziy qismi botiqdan iborat bo‘lib, nisbatan tekis, undan Sirdaryo oqib o‘tib, uchta eski qayir hosil qilgan |
| | B | Sharqida Bobotog‘ joylashgan, u ancha yemirilib, pasayib qolgan bo‘lib, eng baland Zarkosa cho‘qqisining balandligi 2289 metrga yetadi |
| | C | Turkiston, Morguzar, Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘rini egallaydi |
| | D | Neft-gaz zaxirasiga boy hudud hisoblanib, eng muhim konlari Gazli, Jarqoq, Shodi, Dengizko‘l va boshqalardir |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

5. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ular relyefiga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Okrug relyefining xususiyatlari | |
|--|---------------------------------|---|
| 1.O‘rta Zarafshon 2.Qashqadaryo 3.Chirchiq-Ohangaron | A | Okrugning eng g‘arbida Ugom tizmasi joylashib, u Talas Olatovidan Manas cho‘qqisi (4484 m) yaqinidan janubi-g‘arbga qarab davom etadi |
| | B | Okrug geomorfologik tuzilishi jihatidan kenglik bo‘ylab yo‘nalgan bir necha bukilma va ko‘tarilmalardan iborat |
| | C | Shimoli-sharqida Zarafshon tizmasining g‘arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog‘lari joylashgan |
| | D | Shimolida Nurota, Oqtov va Qoratorov, janubida esa Qoratepa, Ziyovuddin hamda Zirabuloq tog‘lari joylashgan |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

6. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning suvlariga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Okrug suvlarining xususiyatlari | |
|---|--|--|
| 1.Farg‘ona 2.Mirzacho‘l 3.Qashqadaryo | A | To‘polondaryo eng katta va eng sersuv irmoqlardan biri, Hisor tog‘ining eng baland qismidan Qorasuv nomi bilan boshlanib, G‘ova irmog‘ini qo‘shib olgach, To‘polondaryo nomini oladi |
| | B | Okrugning eng yirik va asosiy suv manbayi - Sirdaryo. U okrugning shimoli-sharq tomonidan oqib o‘tadi |
| | C | Okrugdagi eng katta va sersuv daryolar-Norin, Qoradaryo va Sirdaryo hisoblanadi |
| | D | Okrug nomi bilan ataladigan daryoning Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog‘ va Tanxoz irmoqlari qor-muzlik suvidan to‘yinadi |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

7. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududida tashkil etilgan qo‘riqxonalar nomlarini o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Qo‘riqxonalar | |
|---|----------------------|-------------------------------|
| 1.Chirchiq–Ohangaron 2.Quyi Zarafshon 3.Qashqadaryo | A | Jayron ekomarkazi |
| | B | Hisor qo‘riqxonasi |
| | C | Zarafshon qo‘riqxonasi |
| | D | Chotqol biosfera qo‘riqxonasi |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

8. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududidagi ko‘llarni o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Ko‘llar | |
|---|----------------|------------------|
| 1.Quyi Amudaryo 2.Mirzacho‘l 3.Quyi Zarafshon | A | Tuzkon ko‘li |
| | B | Jiltirbas ko‘li |
| | C | Dengizko‘l ko‘li |
| | D | Shovurko‘l |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

9. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularga xos iqlimiy xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Iqlimiy xususiyatlar | |
|--|----------------------|--|
| 1.Qashqadaryo 2.O‘rta Zarafshon 3.Qizilqum | A | Okrugda sovuq bo‘lmaydigan kunlar bir yilda 213—215 kuni tashkil etadi. Vegetatsiya davridagi ijobiy haroratning yig‘indisi 4300—5000°C ga yetadi. |
| | B | Yanvarning o‘rtacha harorati okrugning shimoliy qismida $-5 -10^{\circ}\text{C}$, o‘rta qismida $-2 -4^{\circ}\text{C}$, janubida esa $-1 -2^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi |
| | C | May oyidan boshlab shimoli-g‘arbdan, g‘arbdan esuvchi havo massasi ta’sirida havo ilib, yog‘ingarchilik boshlanadi. Okrugga yiliga o‘rtacha 80—100 mm atrofida yog‘in yog‘ib, uning 45 foizi bahorga, 10—11 foizi yozga to‘g‘ri keladi |
| | D | Yanvarning o‘rtacha harorati tekislik qismida $0 +2^{\circ}\text{C}$, G‘uzorda $+1,9^{\circ}\text{C}$, Kitobda $+0,8^{\circ}\text{C}$, Qarshida $+0,2^{\circ}\text{C}$ |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

10. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning asosiy tuprog‘ini o‘zaro moslashtiring.

| Tabiiy geografik okruglar | Iqlimiy xususiyatlar | |
|--|----------------------|--------------------------|
| 1.Quyi Amudaryo 2.Qizilqum 3.Qashqadaryo | A | Qumoq va qumli tuproqlar |
| | B | Och bo‘z tuproq |
| | C | Sur qo‘ng‘ir tuproqlar |
| | D | O‘tloq-voha tuproqlari |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| | | |

16-savollar bazasi

1. Berilgan xususiyatlar orasidan Afrika materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Materik zaminida qadimgi Gondvana platformasi joylashgan
2. Materik hududida kuchli burmali tog‘lar juda keng tarqalgan
3. Sharqiy qismida yirik riftlar va grabenlar mavjud
4. Dunyodagi eng baland tog‘ tizmalari faqat shu materikda joylashgan
5. Materikda tez-tez zilzila va vulqonlar sodir bo‘lib turadi
6. Eng baland cho‘qqisi 6 000 metrdan baland
7. Materikning katta qismi past va baland yassitog‘liklardan iborat
8. Sharqiy qismida faol vulqonlar mutlaqo uchramaydi

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

2. Berilgan xususiyatlar orasidan Afrika materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Materik relyefi “past” va “baland” Afrikaga bo‘linadi
2. Eng baland nuqtasi Kilimanjaro vulqoni hisoblanadi
3. Materik hududida yog‘inlar bir tekis taqsimlangan
4. Ekvator materikning deyarli o‘rtasidan kesib o‘tadi
5. Sahroi Kabir janubiy tropik mintaqada joylashgan
6. Markaziy Afrikada tektonik yoriqlar va chuqur ko‘llar mavjud
7. Materikda subtropik iqlim mintaqasi faqat shimolda uchraydi
8. Materikning eng past nuqtasi dengiz sathidan –153 m pastda joylashgan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

3. Berilgan xususiyatlar orasidan Avstraliya materigiga xos bo‘lganlarini aniqlang.

1. Materik qadimgi Gondvana supermaterigining bir qismi hisoblanadi
2. Eng yirik harakatdagi vulqon shu materikda joylashgan
3. Materikning katta qismi qalin muzliklardan iborat
4. Eng baland nuqtasi Kossyushko cho‘qqisi hisoblanadi
5. Materik hududining 60% ga yaqin qismi ichki (berk) havzaga kiradi
6. Yirik daryolari Murrey va Darling Tinch okeanga quyiladi
7. Markaziy qismi asosan baland vulqon tog‘laridan iborat
8. Sharqiy qismida qadimgi burmali tog‘lar joylashgan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

4. Berilgan xususiyatlar orasidan Avstraliya materigiga xos bo'lganlarini aniqlang.

1. Materikning katta qismi mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan
2. Eng ko'p yog'in materikning shimoli-sharqiy qismiga to'g'ri keladi
3. Materikda doimiy oqar daryolar juda ko'p va ular yil bo'yi sersuv
4. Eng katta daryo tizimi Murrey (Darling bilan) hisoblanadi
5. Ko'llarining aksariyati sho'r bo'lib, vaqtincha suv bilan to'la bo'ladi
6. Keng bargli o'rmonlar materik hududida katta maydonni egallaydi
7. Materikda endemik o'simlik va hayvon turlari juda kam uchraydi
8. Savanna va cho'llar materikning katta qismini egallagan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

5. Berilgan xususiyatlar orasidan Antarktida materigiga xos bo'lganlarini aniqlang.

1. Materik sayyoramizning eng sovuq hududi hisoblanadi
2. Materikda eng past harorat -5°C gacha qayd etilgan
3. Materik hududining katta qismi doimiy yashil o'rmonlar bilan qoplangan
4. Antarktida deyarli butunlay qalin muz qoplami bilan qoplangan
5. Materikda yog'in miqdori juda ko'p, u asosan yomg'ir shaklida yog'adi
6. Materik muz qoplami ostida turli o'simliklar komplekslari mavjud
7. Quruqlikda yirik sut emizuvchi hayvonlar yashaydi
8. Antarktida ustida "ozon tuynugi" bilan bog'liq ekologik muammolar kuzatiladi

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

6. Berilgan xususiyatlar orasidan Janubiy Amerika materigiga xos bo'lganlarini aniqlang.

1. Materikda dunyodagi eng sersuv daryo — Amazonka mavjud
2. Eng baland cho'qqisi Lyulyaylyako vulqoni hisoblanadi
3. Materik hududida qadimgi platformalar bilan bir qatorda yirik burmali tog'lar ham mavjud
4. Materik hududi to'liq Shimoliy yarimsharda joylashgan
5. Eng yirik tekisliklari Amazonka, Orinoko va La Plata kabilardir
6. Materikning sharqiy qismida And tog' tizmasi joylashgan
7. Materikning Tinch okean sohillarida sovuq Peru oqimining ta'siri seziladi
8. Materik hududida chalacho'l va cho'l zonalari mutlaqo uchramaydi

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

7. Quyidagi xususiyatlardan qaysilari Janubiy Amerika materigining iqlimi, ichki suvlari va kashf etilishi bilan bog'liq?

1. Materik ekvatorial, shimoliy tropik va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan

2. Amazonka daryosi yil bo‘yi sersuv bo‘lib, 500 dan ortiq irmoqlarga ega
3. Materikning eng qurg‘oqchil hududi — Atakama cho‘lidir
4. Materikni yevropaliklar orasida birinchi bo‘lib Amerigo Vespuhchi kashf etgan

5. Janubiy Amerika Atlantika okeani bilan kuchli ta’sirlashuvga ega
6. Materikda yirik ichki oqim havzalari deyarli yo‘q
7. Shudring Atakama cho‘li namligining yagona manbai hisoblanadi
8. Ichki suvlari kam bo‘lgani sababli yirik daryolar shakllanmagan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

8. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Amerika materigiga xos bo‘lganlarini aniqlang.

1. Materik maydoni jihatidan dunyoda uchinchi o‘rinda turadi
2. Eng yirik oroli – Kalimantan hisoblanadi
3. Eng baland cho‘qqisi Akonkagua tog‘i hisoblanadi
4. Materik hududida Kordilyera va Appalachi tog‘ tizmalari mavjud
5. Eng chuqur darasi Kolorado kanyoni hisoblanadi
6. Materikning sharqiy qismida yosh burmali tog‘lar ko‘p
7. Materikning Tinch okean sohillarida faol vulqonlar va zilzilalar uchraydi
8. Materik hududi faqat tropik iqlim mintaqasida joylashgan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

9. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Amerika materigiga xos bo‘lganlarini aniqlang.

1. Materikda janubiy tropik va mo‘tadil iqlim mintaqalari uchraydi
2. Eng yirik daryosi Missisipi daryosi hisoblanadi
3. Materikning shimoliy qismida arktika iqlim mintaqasi joylashgan
4. Eng ko‘p yog‘in Tinch okean sohillariga to‘g‘ri keladi
5. Materik ichki qismida doimiy daryolar juda kam
6. Buyuk ko‘llar materikning shimoli-sharqiy qismida joylashgan
7. Subekvatorial iqlim mintaqasi faqat janubda uchraydi
8. Arktika havo massalari ba’zan janubga erkin kirib keladi

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

10. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Amerika materigiga xos bo‘lganlarini aniqlang.

1. Shimoliy Amerika tabiiy jihatdan Arktika orollari, Sharqiy qism, Markaziy Amerika va Kordilyera tog‘lariga bo‘linadi
2. Kanada–Arktika orollari hududi asosan muzliklar va qahraton sovuq iqlimiga ega
3. Materik sharqiy qismining asosiy relyefini baland burmali tog‘lar tashkil etadi

4. Kordilyera tog‘larida Alyaska va Kanada Kordilyeralari joylashgan
5. Materikning eng baland cho‘qqisi Denali (Mak Kinli) Alyaska hududida joylashgan
6. Markaziy Amerika hududi asosan tekisliklardan iborat bo‘lib, tog‘lar deyarli uchramaydi
7. Alyaska va Aleut orollarida kuchli zilzilalar va vulqonlar tez-tez kuzatiladi
8. G‘arbiy qismida geologik jihatdan eng keksa qoldiq tog‘lar joylashgan

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

17-savollar bazasi

1.–.... tabiiy geografik okrugi O‘zbekistonning shimoli-sharqida, Sirdaryo bilan G‘arbiy Tyanshan tog‘lari orasida joylashgan. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zlarni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | | | | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|---|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | – | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|---|--|--|--|--|--|--|--|--|

2. tabiiy geografik okrugi tektonik botiqda joylashib, neogen davrining oxiri va quyi antropogen davrida dengizdan bo‘shab, quruqlikka aylangan. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|

3. Turkiston, Morguzar, Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘ri tabiiy geografik okrugi hududida joylashgan. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|

4. tabiiy geografik okrugi shu nomdagi yirik ko‘lning qurigan qismi va qoldiq ko‘llarni o‘z ichiga oladi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

5. tabiiy geografik okrugini shimol tomondan Nurota tog‘lari, janubdan Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog‘lari o‘rab turadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zlarni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|


6. tabiiy geografik okrugi O‘zbekistonning janubida joylashgan bo‘lib, uning shimoliy chegarasi Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog‘lari, g‘arbiy chegarasi Jarqoq, Muborak va Dengizko‘l balandliklari orqali o‘tadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

| | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

7. tabiiy geografik okrugi sharqdan va shimoli-sharqdan Bobotog‘ va Hisor tog‘lari orqali Tojikiston bilan, shimoli-g‘arbda Chaqchar va Boysun


18-savollar bazasi

1. Yosh tadqiqotchi chizmada tasvirlangan hududda meteorologik izlanishlar olib bordi. U o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladi. Tadqiqotchi o'rgangan nuqtalarning qaysi biri botqoqlik va o'tloqqa eng yaqin joylashgan?




Javob: _____

2. Tadqiqotchilar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Tadqiqotchilar o'rgangan nuqtalarning qaysi biri aralash o'rmonga eng yaqin joylashgan?




Javob: _____

3. Geograflar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Geograflar o'rgangan nuqtalardan qaysi birining mutlaq balandligi eng yuqori?




Javob: _____

4. Yosh olimlar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar va o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Ular o'rgangan 1-nuqtaning 3-nuqtadan nisbiy balandligini aniqlang.




Javob: _____

5. Tadqiqotchilar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Mazkur hududdagi gorizontallar necha metrdan o'tkazilganini chizmadan foydalanib aniqlang.




Javob: _____

6. Yosh geograflar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Yosh geograflar o'rgangan nuqtalardan qaysi birining mutlaq balandligi eng yuqori?




Javob: _____

7. Tadqiqotchilar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Tadqiqotchilar o'rgangan nuqtalardan qaysi birining mutlaq balandligi eng past?




Javob: _____

8. O'quvchilar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. O'quvchilar o'rgangan nuqtalardan qaysi birida havo bosimi eng past bo'ladi?




Javob: _____

9. Olimlar jamoasi chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar va o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Ular o'rgangan nuqtalardan qaysi birida havo harorati eng yuqori bo'ladi?



Javob: _____

10. Tadqiqotchilar chizmada tasvirlangan hududda dala kuzatuvlarini olib bordilar. Ular o'rgangan nuqtalarini 1, 2, 3 sonlari bilan belgiladilar. Tadqiqotchilar o'rgangan nuqtalardan qaysi biri o'tloqqa eng yaqin joylashgan?



Javob: _____

19-savollar bazasi

1. Quyida berilgan jadval asosida yillik yog‘in miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avqust | Sentabr | Oktabr | Noyabr | Dekabr |
|------------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|---------|--------|--------|--------|
| Yog‘in miqdori, <i>mm</i> | 12 | 11 | 19 | 19 | 15 | 6 | 2 | 2 | 4 | 9 | 11 | 11 |
| O‘rtacha harorat, <i>t°C</i> | -3 | -1 | 7 | 15 | 23 | 27 | 30 | 28 | 21 | 12 | 4 | -2 |

Javob: _____

2. Quyida berilgan jadval asosida yilning dastlabki olti oyidagi yog‘in miqdori va havo haroratining yarim yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun |
|------------------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|
| Yog‘in miqdori, <i>mm</i> | 25 | 31 | 29 | 17 | 14 | 10 |
| Oylik o‘rtacha harorat, <i>t°C</i> | -11 | -9 | 6 | 18 | 27 | 31 |

Javob: _____

3. Quyida berilgan jadval asosida yillik yog‘in miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avqust | Sentabr | Oktabr | Noyabr | Dekabr |
|------------------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|---------|--------|--------|--------|
| Yog‘in miqdori, <i>mm</i> | 28 | 30 | 24 | 20 | 17 | 8 | 8 | 4 | 11 | 14 | 18 | 24 |
| Oylik o‘rtacha harorat, <i>t°C</i> | -9 | -6 | 5 | 17 | 22 | 25 | 31 | 28 | 23 | 18 | 9 | -3 |

Javob: _____

4. Quyida berilgan jadval asosida yillik yog‘in miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | April | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktabr | NOyabr | Dekabr |
|-----------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|--------|--------|--------|
| Yog‘in miqdori, mm | 22 | 26 | 20 | 18 | 14 | 6 | 5 | 4 | 9 | 12 | 16 | 21 |
| Oylik o‘rtacha harorat, t°C | -11 | -8 | 3 | 15 | 21 | 26 | 33 | 30 | 24 | 16 | 6 | -5 |

Javob: _____

5. Quyida berilgan jadval asosida yillik yog‘in miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | April | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktabr | NOyabr | Dekabr |
|-----------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|--------|--------|--------|
| Yog‘in miqdori, mm | 35 | 38 | 32 | 28 | 22 | 14 | 10 | 9 | 18 | 26 | 30 | 34 |
| Oylik o‘rtacha harorat, t°C | -4 | -2 | 7 | 16 | 20 | 24 | 27 | 26 | 21 | 15 | 8 | 0 |

Javob: _____

6. Quyida berilgan jadval asosida yillik yog‘in miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | April | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktabr | NOyabr | Dekabr |
|-------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|--------|--------|--------|
|-------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|--------|--------|--------|

| | | | | | | | | | | | | |
|------------------------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Yogʻin miqdori, <i>mm</i> | 18 | 20 | 15 | 10 | 6 | 2 | 1 | 1 | 3 | 7 | 12 | 16 |
| Oylik oʻrtacha harorat, <i>t°C</i> | -2 | 1 | 10 | 22 | 29 | 35 | 41 | 39 | 32 | 22 | 10 | 2 |

Javob: _____

7. Quyida berilgan jadval asosida yillik yogʻin miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | April | May | Iyun | Iyul | Avqust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr |
|------------------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|---------|--------|--------|
| Yogʻin miqdori, <i>mm</i> | 40 | 42 | 38 | 35 | 30 | 22 | 18 | 17 | 25 | 32 | 36 | 41 |
| Oylik oʻrtacha harorat, <i>t°C</i> | -7 | -5 | 2 | 11 | 16 | 20 | 24 | 23 | 18 | 12 | 5 | -3 |

Javob: _____

8. Quyida berilgan jadval asosida yillik yogʻin miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Yanvar | Fevral | Mart | April | May | Iyun | Iyul | Avqust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr |
|------------------------------------|--------|--------|------|-------|-----|------|------|--------|----------|---------|--------|--------|
| Yogʻin miqdori, <i>mm</i> | 26 | 28 | 22 | 18 | 14 | 9 | 7 | 6 | 10 | 15 | 19 | 24 |
| Oylik oʻrtacha harorat, <i>t°C</i> | -12 | -9 | 1 | 12 | 18 | 22 | 26 | 25 | 19 | 11 | 2 | -6 |

Javob: _____

9. Quyida berilgan jadval asosida yillik yogʻin miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Y a n v a r | F e v r a l | M a r t | A p r e l | M a y | I y u n | I y u l | A v g u s t | S e n t y a b r | O k t y a b r | N o y a b r | D e k a b r |
|------------------------------------|----------------------------|----------------------------|------------------|-----------------------|-------------|------------------|------------------|----------------------------|--------------------------------------|---------------------------------|----------------------------|----------------------------|
| Yogʻin miqdori, <i>mm</i> | 12 | 14 | 10 | 6 | 4 | 1 | 0 | 1 | 3 | 6 | 9 | 11 |
| Oylik oʻrtacha harorat, <i>t°C</i> | -2 | -5 | 14 | 26 | 34 | 40 | 44 | 42 | 35 | 25 | 8 | -4 |

Javob: _____

10. Quyida berilgan jadval asosida yillik yogʻin miqdori va havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

| Oylar | Y a n v a r | F e v r a l | M a r t | A p r e l | M a y | I y u n | I y u l | A v g u s t | S e n t y a b r | O k t y a b r | N o y a b r | D e k a b r |
|------------------------------------|----------------------------|----------------------------|------------------|-----------------------|-------------|------------------|------------------|----------------------------|--------------------------------------|---------------------------------|----------------------------|----------------------------|
| Yogʻin miqdori, <i>mm</i> | 45 | 42 | 38 | 34 | 30 | 26 | 22 | 21 | 28 | 35 | 40 | 44 |
| Oylik oʻrtacha harorat, <i>t°C</i> | -3 | -1 | 6 | 14 | 19 | 23 | 26 | 25 | 20 | 14 | 7 | 0 |

Javob: _____

20-savollar bazasi

1. Qozog‘iston Respublikasining maydoni 2,73 mln kv. km, aholi soni esa 18,7 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

2. Slovakiya Respublikasining maydoni 48,8 ming kv. km, aholi soni esa 5,5 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

3. Ukraina Respublikasining maydoni 603,5 ming kv. km, aholi soni esa 41,8 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

4. Xorvatiya Respublikasining maydoni 56,5 ming kv. km, aholi soni esa 4,0 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

5. Shvetsiyaning maydoni 449,9 ming kv. km, aholi soni esa 10,4 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

6. Afg‘oniston Respublikasining maydoni 652,8 ming kv. km, aholi soni esa 38,9 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Javob: _____

7. Bangladesh Respublikasining maydoni 144 ming kv. km, aholi soni esa 169,8 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o'rtacha zichligini aniqlang.

Javob:_____

8. Indoneziya Respublikasining maydoni 1 919,4 ming kv. km, aholi soni esa 271,7 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o'rtacha zichligini aniqlang.

Javob:_____

9. Germaniya Federativ Respublikasining maydoni 357,0 ming kv. km, aholi soni esa 83,2 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o'rtacha zichligini aniqlang.

Javob:_____

10. Mo'g'uliston Respublikasining maydoni 1 566,6 ming kv. km, aholi soni esa 3,4 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining o'rtacha zichligini aniqlang.

Javob:_____